



№3

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali
23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №049864




MUNDARIJA

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmi rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta’lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No’rbo’ta o’g’li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmuratovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevachilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





TIJORAT BANKLARIDA KREDIT XIZMATLARI AMALIYOTINING DOLZARB MASALALARI

Jo‘rayeva Zarifa Bahodir qizi

*moliya kafedrası
tayanch doktoranti
Termiz davlat universiteti
E-mail: j.zarifa.1993@gmail.com
ORCID: 0009 -0009 -1939-2394*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy makroiqtisodiy beqarorlik va moliyaviy tizimning transformatsiyalashuvi sharoitida O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotini rivojlantirish, aktivlar tarkibini optimallashtirish hamda sohadagi tarkibiy-institutsional muammolarni bartaraf etish masalalari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida bank resurs bazasi, pul-kredit siyosati instrumentlarining kreditlarning nominal va real foiz stavkalariga o‘zgarishiga ta’siri hamda kredit portfelining tarmoqlar va maqsadlar kesimida tendensiyalarni nazariy-metodologik jihatdan chuqur tahlil qilingan.

Maqolada bank tizimidagi likvidlilik devalvatsiyasi, tizimli risklar va kredit portfelining sohaviy konsentratsiyalashuv xavf-xatarlari kritik baholangan. Olib borilgan kuzatishlar natijasida tijorat banklari kredit siyosatini diversifikatsiya qilish, pul bozori institutsional tizimini rivojlantirish va kredit xizmatlari amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan konseptual ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar paketi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, kredit xizmatlari amaliyoti, aktivlar tarkibi, kredit portfeli, tarkibiy siljishlar, konsentratsiya xavfi, maqsadli kreditlash, makroiqtisodiy transformatsiya.

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ И ПРАКТИКИ КРЕДИТНОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Жураева Зарифа Баходир кизи

*базовый докторант
кафедры финансы
Термезский государственный университет
E-mail: j.zarifa.1993@gmail.com
ORCID: 0009 -0009 -1939-2394*

Аннотация. В данной статье исследованы вопросы развития практики кредитных услуг, оптимизации структуры активов и устранения структурно-институциональных проблем в коммерческих банках Республики Узбекистан в условиях современной макроэкономической нестабильности и трансформации финансовой системы. В ходе исследования с теоретико-методологической точки зрения глубоко проанализированы ресурсная база банков, влияние инструментов монетарной политики на изменение номинальных и реальных процентных ставок по кредитам, а также тенденции развития кредитного портфеля в разрезе отраслей и целей финансирования. В статье критически оценены проблемы ликвидности, системные риски и угрозы отраслевой концентрации кредитного портфеля в банковской системе. На основе проведенных наблюдений разработан концептуальный пакет научных предложений и практических рекомендаций, направленных на диверсификацию кредитной политики, развитие институциональной структуры денежного рынка и повышение эффективности практики кредитных услуг коммерческих банков.

Ключевые слова: коммерческие банки, практика кредитных услуг, структура активов, кредитный портфель, структурные сдвиги, риск концентрации, целевое кредитование, макроэкономическая трансформация.





TOPICAL ISSUES OF CREDIT SERVICE PRACTICES IN COMMERCIAL BANKS

Jorayeva Zarifa Bahodir qizi

Basic Doctoral Student (PhD Researcher)

Department of Finance

Termiz State Universiteti

E-mail: j.zarifa.1993@gmail.com

ORCID: 0009-0009-1939-2394

Abstract. *This article investigates the issues of developing credit service practices, optimizing asset structures, and eliminating structural-institutional challenges in commercial banks of the Republic of Uzbekistan amidst contemporary macroeconomic volatility and the transformation of the financial system. Within the framework of the study, the bank's resource base, the impact of monetary policy instruments on the changes in nominal and real credit interest rates, and the tendencies within the loan portfolio across economic sectors and loan purposes are deeply analyzed from a theoretical and methodological perspective. The paper critically evaluates liquidity issues, systemic risks, and sector-specific credit concentration vulnerabilities within the banking system. Consequent to the empirical and qualitative assessments, a conceptual package of scientific proposals and actionable recommendations aimed at diversifying credit policies, developing the institutional framework of the money market, and optimizing the efficiency of commercial bank credit operations has been developed.*

Keywords: *commercial banks, credit service practices, asset structure, loan portfolio, structural shifts, concentration risk, targeted lending, macroeconomic transformation.*

Kirish

Zamonaviy makroiqtisodiy beqarorlik va global moliyaviy landshaftning transformatsiyalashuvi sharoitida milliy bank-moliya tizimining barqarorligini ta'minlash hamda uning real sektor bilan integratsiyasini kuchaytirish barqaror iqtisodiy o'sishning bosh mezonini hisoblanadi. Tijorat banklari moliyaviy vositachi sifatida kapital harakatini optimallashtirish, investitsiyaviy faollikni rag'batlantirish va yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibida yuqori qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlarni qo'llab-quvvatlashda markaziy bo'g'in bo'lib xizmat qiladi. Bank aktivlari va daromad bazasining asosiy qismini an'anaviy ravishda kreditlash operatsiyalari tashkil etishini inobatga olsak, tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotini tizimli rivojlantirish va sohadagi tarkibiy muammolarni bartaraf etish strategik ahamiyatga egadir.

Xususan, bank tizimida balanslashmagan likvidlilik darajasi va resurs bazasi qiymatining qimmatlashishi natijasida tijorat kreditlari bo'yicha nominal foiz stavkalarining yuqoriligicha qolayotgani, kredit portfelining tarmoqlar kesimida yuqori darajada konsentrlashuvi ayrim banklarda bitta tarmoq ulushining 60–70 foizni tashkil etishi va kredit risklarini avtomatlashtirilgan baholash (skoring) tizimlarining to'liq shakllanmagani shular jumlasidandir. Bundan tashqari, tijorat banklarida muammoli kreditlar hajmini kamaytirish, kreditlardan ko'riladigan ehtimoliy zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan maqbul darajasini saqlash hamda Bazel III talablariga to'liq moslashish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Shu nuqtayi nazardan O'zbekiston tijorat banklarida kredit xizmatlarini tashkil etishning joriy holatini tizimli va kauzal tahlil qilish, kredit portfeli tarkibidagi risklarni empirik baholash hamda mahalliy banklarning daromad bazasi barqarorligini ta'minlagan holda kreditlash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar kompleksini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

Bugungi kunda banklar tomonidan bank xizmatlari, uning rivojlanish bosqichlari, uni yanada takomillashtirish bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.





O. Lavrushinning fikriga ko‘ra, tijorat banklari kredit xizmatlarini faqat moliyaviy vosita sifatida emas, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi omil sifatida ko‘radi. Biroq, kreditlarning maqsadli va samarali ishlatilishini ta‘minlash uchun qat‘iy nazorat zarurligini alohida ta‘kidlab o‘tadi[1].

U bank kreditlari tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholining turmush darajasini oshirishdagi rolini ko‘rsatishini qayd etib o‘tgan.

T. Kostirina tijorat banklarining kredit xizmatlari iqtisodiyotning real sektori (sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar) rivojlanishiga xizmat qilishi kerakligini ta‘kidlaydi. U kreditlarning maqsadli ravishda kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash, ish o‘rinlari yaratish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga, turli sektorlari, xususan, ijtimoiy sohalar yoshlar, ayollar, qishloq xo‘jaligi bilan ishlashida imtiyozli kreditlarning ahamiyatini ta‘kidlaydi va banklarning nafaqat foyda olish, balki ijtimoiy dasturlar orqali iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilishi lozimligini ko‘rsatadi[2].

Kostirina fikridan ko‘rinadiki, tijorat banklarining kichik va o‘rta korxonalar, jismoniy shaxslarga kredit berishdagi rolini tahlil qilinishi, ularning foiz stavkalari va kredit shartlarini optimallashtirish zarurligini, kredit berishda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan dasturlarning rolini oshirishni va imtiyozli kreditlarning kichik va o‘rta biznes, qishloq xo‘jaligi va ijtimoiy guruhlar (masalan, yoshlar va ayollar) uchun muhim ekanligini ko‘rsatadi.

Muhammad Taqiy Usmoniy mushoraka (sherikchilik) va muzoraba (foyda taqsimoti) kabi modellarni islom banklarining asosiy faoliyat yo‘nalishlari sifatida targ‘ib qiladi. Uning fikricha, bu shartnomalar haqiqiy iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantiradi va jamiyatda ijtimoiy adolatni mustahkamlaydi[2].

Bekinning ta‘kidlashicha, mushoraka va muzoraba kabi sherikchilik modellari islom moliyasining eng muhim xizmatlar turlaridan hisoblanadi. Bunda moliyalashtiruvchi (bank) va mablag‘ oluvchi (mijoz) foyda va zararni o‘zaro bo‘lishadi. Muzoraba, ijara, salam, istisna‘ ham shular jumlasidandir. Bu, an‘anaviy kreditlarning xavfni faqat qarzdor zimmasiga yuklash tamoyilidan tubdan farq qiladi.

Uning fikricha, bunday tavakkalchilikni taqsimlash mexanizmi moliyaviy tizimning barqarorligini oshiradi va haqiqiy ishlab chiqarishni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, foizning haromligi tufayli an‘anaviy kreditlarning islomda mavjud emasligini, balki ularning o‘rmini real aktivlarga asoslangan va tavakkalchilikni taqsimlovchi foizsiz moliyaviy mahsulotlar egallashini ta‘kidlashdan iborat. Uning tadqiqotlari islom moliyasining nafaqat shar‘iy, balki huquqiy va iqtisodiy jihatlarini ham kompleks ravishda o‘rganishga qaratilgan[1].

Islom bank xizmatlarining ijobiy taraflari juda keng qamrovli bo‘lib, ular nafaqat moliyaviy, balki iqtisodiy, ijtimoiy va axloqiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Bu tizimning asosiy maqsadi – halol, adolatli va barqaror iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirishdir. Islom banklari pulning o‘z-o‘zidan foyda keltirishini (ribo) taqiqlagani uchun, ularning moliyalashtirish jarayonlari doimo real aktivlar, tovarlar va xizmatlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu, an‘anaviy foizga asoslangan tizimda yuzaga keladigan sun‘iy moliyaviy "pufaklar" yoki spekulatsiyalarning oldini olishga yordam beradi. Natijada, iqtisodiyot barqarorroq bo‘ladi.

A. Mirsoatovning fikricha bank sohasida “yangi bank xizmatlari va mahsulotlari” kabi tushunchalarni ajrata olish muhim bo‘lib, ular huquqiy jihatdan “bank operatsiyalari” yoki “bitimlari” kabi tushunchalarga bog‘langan. Avtonom tarzda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan bank mahsulotidan farqli o‘laroq, bank xizmatlari bir vaqtning o‘zida tugallanmagan xarakterga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha harakatlar to‘plamini ifoda etadi[1].

Fikrimizcha, bank xizmatlari tugallangan mazmunga ega bo‘lgan qo‘shimcha harakatlar natijasi bo‘lishi ham mumkin. Masalan, kredit xizmati. Kredit xizmati tugallangan mazmunga ega bo‘lgan harakatlar natijasidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining





dolzarb muammolarini aniqlash, tizimli tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirish maqsadida mazkur tadqiqotda fundamental iqtisodiy metodlar majmuidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Kreditlash O'zbekiston tijorat banklari faoliyatining asosiy, birlamchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kredit mexanizmining amaldagi holatiga baho berish uchun tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning tarkibi va dinamikasini, daromadlilikini va kredit riskining darajalarini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni tahlil qilamiz.

Dissertatsiyaning ushbu paragrafida tahlillarni amalga oshirishda moliyaviy tahlilning guruhlash, qiyosiy, tarkibiy va trendli tahlil usullaridan foydalanamiz.

Tahlillar uchun ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlaridan hamda tadqiqot obyekti bo'lgan tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlaridan foydalanamiz.

1-jadval.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarining tarkibi, foizda [1]

Aktivlar tarkibi	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Kassali aktivlar shu jumladan:	17,3	18,1	20,0	15,1	16,3
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	2,7	2,4	3,5	2,3	3,1
Markaziy bankdagi mablag'lar	5,1	7,1	6,6	3,7	5,1
Boshqa bankdagi mablag'lar-rezident	3,6	3,0	3,1	3,9	3,7
Boshqa bankdagi mablag'lar-norezident	5,9	5,6	6,8	5,2	4,4
Qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar	2,6	4,4	5,7	5,0	5,0
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha majburiyatlari	0,4	0,3	0,3	0,4	0,5
Kreditlar	73,8	71,1	68,1	71,2	70,2
Asosiy vositalar	2,3	2,5	2,6	2,9	3,0
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	2,2	2,1	2,2	3,1	3,0
Boshqa aktivlar	1,4	1,5	1,1	2,3	2,0
Aktivlar — jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlari umumiy hajmida eng yuqori salmoqni 2020-2024-yillarda kreditlar egallagan. Bu esa, respublikamiz tijorat banklari uchun asosiy faoliyat yo'nalishi tahlil qilingan davr mobaynida kreditlash bo'lganligi bilan izohlanadi.

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, respublikamiz tijorat banklarining aktivlar hajmida qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar 2020-2024-yillarda nisbatan juda kichik salmoqni egallagan. Bu esa, banklar faoliyatini rivojlantirish va banklarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini oshirish nuqtayi nazaridan salbiy holat hisoblanadi. Holbuki, taraqqiy etgan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi va likvidligini ta'minlashning zaruriy sharti hisoblanadi.

Endi biz kreditlarning tarmoq tarkibiga baho beramiz (2-jadval).





2-jadval.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining tarmoq tarkibi, foizda³²

Tarmoqlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Sanoat	36,9	36,0	32,5	29,7	28,8
Qishloq xo‘jaligi	10,1	10,7	10,8	10,0	9,4
Qurilish	2,7	2,8	2,7	2,6	2,4
Savdo va umumiy xizmat	7,2	8,4	7,4	6,9	7,2
Transport va kommunikatsiya	9,6	8,8	7,6	7,3	6,2
Moddiy-texnika ta‘minoti	1,4	1,2	1,0	0,9	0,8
Uy-joy kommunal xo‘jaligi	1,4	0,7	0,5	0,5	0,4
Jismoniy shaxslar	19,8	21,3	25,9	31,5	33,3
Boshqa sohalar	10,9	10,0	11,7	10,6	11,5
Kreditlar — jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0

2-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlardan yaqqol ko‘rinadiki, 2020-2024-yillarda respublikamiz tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning tarmoq tarkibida eng yuqori salmoqni sanoat korxonalariga berilgan kreditlar egallagan.


2-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, 2020-2024-yillarda respublikamiz tijorat banklari kreditlarining tarmoq tarkibida moddiy-texnika ta‘minoti va uy-joy kommunal xo‘jaligiga berilgan kreditlar nisbatan kichik salmoqni egallagan. Bu esa, mazkur tarmoqlarda foyda me‘yorining past ekanligi va ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash amaliyotining mavjudligi bilan izohlanadi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar tijorat banklarining kredit portfelini tarmoq xususiyatiga diversifikatsiya qilish nuqtai-nazaridan salbiy holat hisoblanadi.

O‘z navbatida kreditlarning maqsadlari bo‘yicha yillar kesimida tahlil olib boramiz. (1-rasm).

1-rasm.

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlarining maqsadlari yillik o‘shish sur‘atlari, foizda³³



[1]Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma‘lumotlari (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.

[2]Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma‘lumotlari (www.cbu.uz) asosida tuzilgan.





1-rasm ma’lumotlari shuni kuzatish mumkinki, respublika tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarining maqsadlari yillar kesimida turli xil o‘shish va kamayish tendensiyalarga ega bo‘lgan. 2022-yil ajratilgan kreditlarning o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan.

Bu holat kredit portfelini diversifikatsiyalan nuqtayi nazardan ijobiy hisoblanadi.

Keltirilgan rasmdan yana shuni keltirish mumkinki, 2024-yilda yuridik shaxslarga yangi qurilish va rekonstruksiya uchun berilgan kreditlar miqdori 415,8 foizga oshgan. Bu holat asosan, hukumatning ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish bilan bog‘liq ish faoliyatlarni amalga oshirganlik bilan izohlash mumkin.

Bank tizimi chakana kreditlash hajmini kamaytirish evaziga, o‘z kapitalini yirik mijozlarning qurilish loyihalari va aylanma mablag‘larini shakllantirishga yo‘naltirgan. Keyingi yillarda bank tizimining barqarorligini ta‘minlash uchun kredit portfelini diversifikatsiya qilish natijasida qurilish sektoridagi sohaviy konsentratsiya xavfini kamaytirish va asosiy vositalarni kreditlashni qayta rag‘batlantirish lozim.

Xulosa

Moliyaviy tizimning transformatsiyalashuvi sharoitida O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotini rivojlantirish, aktivlar tarkibini optimallashtirish hamda sohalaridagi tarkibiy muammolarni bartaraf etish masalalari yuzasidan olib borilgan tadqiqotimiz asosida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirdik:

Tahlillarimiz ko‘rishimiz mumkinki, O‘zbekiston tijorat banklari aktivlari umumiy hajmida kredit qo‘yilmalarining ulushi 2020–2024-yillarda barqaror ravishda yuqori o‘rtacha 70,0 foizda saqlanib qolmoqda. Bu holat milliy banklarning asosiy daromadlari an’anaviy kredit xizmatlariga bog‘liq ekanligini anglatadi. Vaholanki, aktivlar tarkibida qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar ulushining juda pastligi o‘rtacha 2,0 – 5,0 foiz darajada saqlanib qolayotganligi banklarning muqobil likvidlik va daromad manbalarini shakllantirish imkoniyatlari cheklanganligini ko‘rsatadi. Rivojlangan davlatlar bank amaliyotida qimmatli qog‘ozlar portfeli moliyaviy barqarorlikning asosiy kafolati hisoblanadi;

Kreditlarning tarmoq tarkibini o‘rganish jarayonida muhim institutsional o‘zgarish aniqlandi. An’anaviy yetakchi hisoblangan sanoat korxonalarini kreditlash ulushi 36,9% dan 28,8% gacha izchil kamayib borgan bir sharoitda, jismoniy shaxslarga ajratilgan chakana kreditlar ulushi 19,8 foizdan 33,3 foizgacha keskin o‘sgan. Bu tendensiya bank tizimining korporativ sektordan ko‘ra, yuqori rentabelli va tez aylanuvchan chakana moliyaviy xizmatlar bozorga ya‘ni, mikroqarzarlar, avtokreditlar, iste‘mol kreditlarini moliyalashtirilayotganidan dalolat beradi;

2024-yilda yuridik shaxslarga yangi qurilish va rekonstruksiya uchun ajratilgan kreditlarning yillik o‘shish sur‘ati kutilmagan darajada 415,8 foizga oshgan. Mazkur ko‘rsatkich davlat dasturlarini faol qo‘llab-quvvatlash bilan izohlanadi. Bir vaqtning o‘zida iqtisodiyotning istiqbolli rivojlanish omili asosiy vositalar sotib olish uchun berilgan kreditlarning 36,1 foizga tushib ketishi xavotirlidir. Bu banklarning uzoq muddatli ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishdan ko‘ra, tez qaytuvchi qurilish sektorini moliyalashtirishga ya‘ni, kredit qo‘yilmalarining bir tarmoqda jamlanayotganini anglatadi;

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, milliy bankchilik tizimida an’anaviy kreditlash bilan muqobil ravishda aholi va tadbirkorlar kapitalini jalb qilish mexanizmining yana bir omili sifatida islom moliyasining sheriklik mushoraka, muzoraba va nasiya savdo murobaha modellarini tizimli joriy etib borish bankdan tashqaridagi naqd pul aylanmasini tizimga qaytarishning fundamental yechimi hisoblanadi.

Milliy bank tizimining makroiqtisodiy barqarorligini ta‘minlash va kredit xizmatlari amaliyoti samaradorligini oshirish maqsadida fikrimizcha quyidagi tizimli tavsiyalarni keltirdik:

1. Kredit portfelini diversifikatsiyalash orqali risk darajasini pasaytirish. Tijorat banklarining kreditlarining bir sohada to‘planish xavfini kamaytirish lozim. Buning uchun qurilish loyihalarini kreditlashni majburiy jilovlagan holda, iqtisodiyotning real sektorida yangi





texnologiyalarni sotib olish, innovatsiyalarni joriy etish, ya’ni asosiy vositalarni kreditlash amaliyotini qayta rag‘batlantirish ustuvor vazifa etib belgilanishi lozim.

2. Aktivlar tarkibida investitsion instrumentlarni kengaytirish ya’ni, banklarning faqat kredit xizmatlariga bo‘lgan yuqori bog‘liqligini kamaytirish, shu bilan birga likvidlilik devalvatsiyasining oldini olish maqsadida, aktivlar tarkibidagi qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar ulushini kamida 10-15% darajasigacha oshirish. Buning uchun davlat va korporativ obligatsiyalar bozorida banklarning vositachilik va dilerlik faoliyatini rag‘batlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3. Bankdan tashqaridagi erkin pul mablag‘lari aylanmasini rasmiy sektorga jalb qilish uchun tijorat banklarida “Islom darchalari”ni ochishning huquqiy bazasini tezlashtirish va naqd pulsiz nazoratni o‘rnatish uchun murobaha (nasiya savdo) va tadbirkorlarni legallashtirish uchun foyda va zararni o‘zaro baham ko‘ruvchi mushoraka/muzoraba instrumentlarini bank amaliyotiga integratsiya qilish zarur.

4. Skoring tizimi asosida risk-menejmentni raqamlashtirish ya’ni, chakana kreditlash ulushining 33,3% gacha keskin ortib borishi tizimda muammoli kreditlar (NPL) hajmi ko‘payishi xavfini tug‘diradi. Shu sababli, mijozlarning to‘lov qobiliyatini inson omilisiz, katta ma’lumotlar (Big Data) va sun’iy intellekt yordamida soniyalarda baholovchi avtomatlashtirilga skoring tizimlarini barcha tijorat banklarida majburiy joriy etish;

5. Pul bozorini tartibga solishning institutsional mexanizmi va svop operatsiyalarini rivojlantirish ya’ni, pul-kredit siyosati instrumentlarining kreditlarning nominal va real foiz stavkalariga ta’sirini samarali qilish uchun Markaziy bank va tijorat banklari o‘rtasidagi qisqa muddatli likvidlilikni tartibga soluvchi valyutaviy svop va REPO operatsiyalari ko‘lamini kengaytirish zarur. Bu banklardagi resurs bazasi qiymatini pasayishiga va kredit foiz stavkalarining optimallashtirishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг “Банклар ва банк фаолияти тўғрисида”ги ЎРҚ-580-сонли Қонуни, 2019 йил 5 ноябрь.
2. Лаврушин О.И. Кредитная экспансия и управление кредитом. Учебное пособие. – М.: Кнорус, 2013. – 264 с.
3. Костерина, Т.М. Банковское дело. – Учебник для СПО. – Люберцы: Юрайт, 2015. – 332 с.
4. Muhammad Taqiy Usmoniy. Islom moliyasiga kirish. – T.: “Azon kitoblari”, 2023. – 288 b.
5. R.I. Bekkin. Islomiy moliya asoslari. “O‘ZBEKISTON” NMIU, 2019. – 360 b.
6. Mirsoatov.A.K. Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish.Avtoreferat.2021y. 13-b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari va byulletenlari (2020–2024 yy.) // www.cbu.uz.

